

## TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY ASOSI

**Musagaliev Ajiniyaz Jumagulovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nukus Innovatsion instituti Xalqaro hamkorlik bo'limi boshligi,

**Jusupova Anjim Tansiqbaevna**

Nukus Innovatsion instituti "Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasida assistent o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11095991>

**Annotatsiya.** Maqolada tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida tutgan o'рни va ahamiyati o'rganilgan. Respublikada so'ngi yillarda iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasi tahlil qilinib, tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay biznes muhitini yaratishga qaratilgan amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

**Tayanch so'zlar:** xususiy tadbirkorlik, bandlik, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, biznes yuritish, kichik korxonalar va mikrofirmalar.

### ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT ECONOMIC BASIS FOR PROVIDING EMPLOYMENT

**Abstract.** The role and importance of entrepreneurship in ensuring population employment and sustainable economic development is studied in the article. The results of the work carried out on the development of this sector of the economy in the Republic in recent years were analyzed, and practical recommendations aimed at creating a more favorable business environment for entrepreneurship were proposed.

**Key words:** private entrepreneurship, employment, gross domestic product, labor resources, business management, small enterprise and micro-enterprises.

### РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

**Аннотация.** В статье рассматривается роль и значение в обеспечении занятости и устойчивого экономического развития. Проанализированы результаты осуществленных работ по развитию этого сектора экономики за последние годы и предложены практические рекомендации, направленные на создание более благоприятной бизнес-среды для деятельности.

**Ключевые слова:** частное предпринимательство, занятость населения, валовой внутренний продукт, трудовые ресурсы, бизнес-среда, малые предприятия и микрофирмы.

**Kirish.** Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida iqtisodiyotning samarali rivojlanishi va mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlashda - Tadbirkorlik muhim ahamiyatga ega. Jahonda aksariyat korxonalar kichik hajmga ega bo'lib, Bugungi kunda 164ta mamlakat Jahon savdo tashkilotiga a'zo hisoblanadi. Jahon savdo tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta korxonalar biznesning 98% dan ortig'ini, ish bilan bandlarning 65-75%i va YaIMning 55%ini tashkil etadi. Shundan

kelib chiqib, aytish mumkinki kichik va oʻrta korxonalar nafaqat iqtisodiyotga salmoqli hissa qoʻshmoqda, balki iqtisodiyot va aholini ish bilan taʼminlashning asosi hisoblanadi.

Demak tadbirkorlik mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgartirishlarni ishga tushiradigan mexanizm va generatori boʻlib, uning barqaror faoliyat olib borishini taʼminlovchi, ilgʻor yangi mahsulot va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etuvchi hamda oʻrta sinfni shakllantiruvchi omil hisoblanadi.

Xususan, tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va aholi bandligini taʼminlashda quyidagi ustunliklarga ega ekanligini taʼkidlash lozim:

– mavjud imkoniyatlardan foydalanish yoʻllarini topish orqali barqaror va muttasil iqtisodiy oʻsishga hissa qoʻshishi;

– yer, ishchi kuchi va sarmoya kabi resurslardan foydalanib, ularni tovarlar va xizmatlarga aylantirgan holda YaIM va jon boshiga daromadlarni koʻpaytirishi;

– toʻgʻridan-toʻgʻri va bilvosita ish oʻrinlarini yaratishi;

– kichik boshlangʻich sarmoya bilan biznesni tashkil etishi, investitsiyalarni tez oʻzlashtirishi va yuqori samaradorlik, koʻpchilikni tadbirkorlik safiga qoʻshilishga ruhlantirish orqali biznesning yanada rivojlanishi va aholi bandligiga koʻmaklashishi;

– mamlakat iqtisodiyotining muvozanatli rivojlanishiga hissa qoʻshadi, chekka hududlarda korxonalar tashkil qilishi, cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, foyda olishi, ushbu hududlarga toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita investitsiya kiritishi va ushbu mintaqaning yanada rivojlanishiga olib kelishi;

– arzon narxlarda asosiy isteʼmol tovarlarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishi, ularning turlarini kengaytirishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifatini yaxshilash hisobiga aholining turmush darajasini oshirishi;

– import oʻrnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar va xizmatlarni keng miqyosda eksport qilish, mamlakatga valyuta kirib kelishiga hissa qoʻshishi orqali mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini taʼminlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oʻzbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yoʻnalishlaridan kelib chiqib, nazariy tahlil va monografik kuzatuvlar asosida aholi bandligini taʼminlashda tadbirkorlik sohasini rivojlantirishning nazariy asoslarining ayrim masalalarini yoritishga qaratilgan.

**Tahlil va natijalar.** Davlatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan qatʼiy nazar, ularning asosiy vazifalaridan biri – mamlakatda ishsizlikni kamaytirish va aholining barcha qatlamlari uchun turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni yuritish orqali uzoq muddatli inklyuziv rivojlanishni taʼminlash hisoblanadi. Bu borada turli davlatlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning amaliyotga tatbiq etilishi bir-biridan farqli boʻlganligi bois iqtisodchilar va ekspertlar orasida ularning qanchalik samaradorligi qizgʻin bahs va munozaralarga sabab boʻladi.

Oʻzbekiston aholining ehtiyojmand va yordamga muhtoj qatlamlariga moliyaviy koʻmak berish tizimining yaratilishi va rivojlanish dajarasi Xalqaro tajribani oʻrgangan holda hamda mamlakatning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, Oʻzbekistonda ham soʻnggi yillarda aholining ehtiyojmand va yordamga muhtoj qatlamlariga moliyaviy koʻmak berish, kasbga tayyorlash hamda tadbirkorlikka jalb qilish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar orqali ularning

turmush farovonligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yaqin o'tmishda mamlakatda birinchi marta kambag'allik mavjudligining tan olinganligi, mazkur toifadagi aholiga manzilli yordam ko'rsatish, ularning bandligini ta'minlash, turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Bunda aholining kambag'al qatlamining bandligini ta'minlash borasidagi ishlar mamlakatning har bir viloyati, tumani, qishloq hamda mahallasining o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy holatini inobatga olgan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadda har bir mahallaning «o'sish nuqtalari»ni (ixtisoslashuv yo'nalishlarini) aniqlash, mahallalardagi xonadonlarning yer uchastkalaridan foydalanish darajasini, oilalarning daromad manbalarini, daromadli mehnat bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqish yo'nalishlarini "xonadonbay" o'rganish orqali ularni tadbirkorlikka jalb qilishni nazarda tutuvchi hududlarda «mahallabay» ishlash tizimi joriy etildi [1].

O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion yo'lga o'tishini rag'batlantiruvchi raqobat bozorini shakllantirish va resurslardan samarali foydalanish, biznes yaratish, soliq to'lash, kredit olishning oddiyligi, mahalliy raqobatning intensivligi va ilm-fanga asoslangan sohalarida bandlikni oshirishga erishish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, respublikamiz mehnat bozorida faol va sust chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznesni hamda xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va tezkor rivojlantirishdagi to'siqlarni bartaraf etish orqali aholini, ayniqsa, yoshlar, nogironlarni munosib ish bilan ta'minlash va samarali bandlikni kengaytirishga yo'naltirilgan qulay shart-sharoit yaratish vazifasi qo'yilgan [2]; [6]. Shu bilan birga, respublikada tadbirkorlik faoliyati hamda qulay biznes muhitini shakllantirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va tatbiq etish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlarda kichik biznesning yirik korporatsiyalar bilan kooperatsiyada faoliyat yuritishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Shuningdek, mamlakatda malakali mehnat resurslariga talabning oshib borayotganligi hamda mehnatga layoqatli aholining katta qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olib, ularni zamonaviy kasblarga mos malakasini shakllantirish, qayta tayyorlash, tadbirkorlik g'oyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini himoya qilish mamlakatning investitsion muhitining jozibadorligi, jamiyatning barcha sohalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning samaradorligi va natijadorligini belgilab beradi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda iqtisodiyotda xotin-qizlar rolini oshirish masalasi, ularning bandligini ta'minlash maqsadida kompleks yondashuvlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, tarixan O'rta Osiyo hududlarida ayollarning asosan bola parvarishi bilan band bo'lib qolayotganligi, ularning to'laqonli mehnat faoliyatini amalga oshirishga asosiy to'siqlardan bo'lib kelgan. Shu munosabat bilan, birinchi navbatda, hududlarda maktabgacha ta'lim qamrovini oshirib borish orqali ayollarga to'laqonli mehnat qilishi uchun sharoit yaratishga zamin yaratilmoqda. Shuningdek, ayollar bandligini ta'minlashda faqatgina tikuvchilik, pazandachilik kabi an'anaviy kasblar bilan cheklanib qolmasdan, ularga axborot texnologiyalari kabi zamonaviy kasblarni o'rgatish va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak xulosa qilish mumkinki, bugungi kundagi aksariyat mamlakatlarning dolzarb muammosi bu ishsizlikdir va keng aholi tomonidan ish bilan ta'minlash masalasi afsuski, odatda hukumatning majburiyati deb hisoblashadi. Ammo, hukumatimiz tez o'sib borayotgan aholining barchasini o'zi ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega emas, balki uning asosiy vazifasi aholi uchun biznes yuritishga qulay, keng sharoitlar yaratish, ularni tadbirkorlikka tayyorlash va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Agar odamlar tabiatan tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lsalar, bunga malakalari yetarli bo'lsa, ular o'z-o'zini ish bilan ta'minlashning turli dasturlarini amalga oshirishlari, o'z korxonalarini ochishlari mumkin bo'ladi va natijada ko'proq ish joylari yaratiladi. Sh bilan birga, respublikada kichik biznes va mehnat bozorining institutsional muhitini faol rivojlantirish natijasida iqtisodiyotning dinamik barqaror o'sishi, diversifikatsiyasi va raqobatbardoshligini hamda aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasining o'sishiga erishilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, bunga to'laqonli erishishni yuksaltirish uchun, quyidagilarni amalga oshirishimiz zarur - deb belgilab berilgan, jumladan:

Birinchidan, tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. Shu yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqot doirasida, 7 ta yo'nalish bo'yicha 60 ga yaqin yangi tashabbus va takliflarni amalga oshirish uchun alohida Dastur qabul qilindi. Yuqorida qayd etilishicha, biznes sohasiga imkoniyatlarni kengaytirish, soliq turlari va uning yukini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar izchil davom ettiriladi. 2020 yilda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirilgan edi. Bu – 100 ming tadbirkor ixtiyorida 10 trillion so'm mablag' qoldirishiga imkon berdi. 2023 yildan boshlab ushbu soliq stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirildi. Kelgusi yili korxonalarining mol-mulk solig'i stavkasi 2 foizdan 1,5 foizga kamaytiriladi va buning natijasida tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 500 milliard so'm mablag' qoladi. Yana bir yangilik – 2023 yildan yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib, yagona ko'chmas mulk solig'i joriy qilinishi kutilmoqda. Hozirgi vaqtda bank, moliya, telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi har xil bo'lib, ular amaldagi 20 foizdan 15 foizga tushiriladi va barcha tadbirkorlar uchun bir xil bo'ladi [3]; [7]; [8]. Yo'l qurilishi, issiqlik ta'minoti, obodonlashtirish xizmatlari kabi 25 ta faoliyat turidagi monopoliyaga barham berilib, endi bu sohalarda tadbirkorlik subyektlariga keng yo'l ochiladi. Tuman va shaharlardagi mavjud bir nechta tadbirkorlikka ko'maklashadigan tuzilmalar negizida Tadbirkorlar kengashi tashkil etiladi - deb belgilab berdilar [4].

Fikrimizcha, mazkur chora tadbirlar samarasi o'laroq "yalpi ichki mahsulotga nisbatan xizmatlar ko'rsatishning o'sib borish tendensiyasi kuzatila boshlaydi, buning natijasida esa tarmoqning mamlakatimiz hududlari iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini oshiradi. Bu holat, bizningcha, respublikaning yirik sanoat tarmoqlari: savdo va umumiy ovqatlanish, transport va aloqa, kommunal, moliya va boshqalarning hissasi bilan ham bevosita bog'liq. Eng muhimi, avvallari asosan davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar asta-sekin xususiy bozor xarakteriga ega bo'lmoqda" [5].

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar va ta'kidlab o'tilgan ilmiy nazariy fikrlarimizdan kelib chiqib xulosa qilib aytganimizda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholining bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlari yaratilishi mumkin deb hisoblaymiz. Shuningdek, tadbirkorlik sohasida mahsulotlarining eksportini

ko‘paytirish orqali mamlakatimizni horijga tanitishni faollashtirish barobarida esa hududimizga chet el sayyohlarida qiziqish uyg‘onishi, bu esa o‘z navbatida, tadbirkorlik sohasining rivojlanishiga muayyan xissa qo‘shadi.

#### REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021 yilgi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qarori. <https://lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2023 yildagi “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-91-son farmoni. <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yilgi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-73-son qarori. <https://lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz>
5. Musagaliev A.J., and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226.
6. Jumagulovich M. A., Askarovna M. S. Aholi bandligini ta‘minlashda hunarmandchilikni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati // "Conference on Universal Science Research 2023". – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 55-58.
7. Jumagulovich M. A. et al. Forecast Guidelines for Investments in The Republic of KARAKALPAKSTAN //International Journal of Religion. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 493-501.
8. Jumagulovich M. A. et al. Procedure for Implementing Tax Control in Tax Risk Management and Tax Audits //Partners Universal International Innovation Journal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 76-83.